

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924)	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar)	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE)	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA)	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASSTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejavalievna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUHOJIRAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyeva Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILIIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Абдуллаева Дилдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

POLITICAL RELATIONS BETWEEN THE UZBEK KHANATES AND THE OTTOMAN RULER SULTAN SULEIMAN

Abduganiev Bekzod Abduvali o'glu

Samarkand State Medical University

Lecturer in the Department of Social Sciences and Humanities

E-mail: abduganievbekzod2409@gmail.com

Abstract. This article examines the political and diplomatic relations between the Uzbek Khanates and the Ottoman Empire in the 16th century. The main focus is on the mutual cooperation that developed through correspondence, diplomatic missions, and military campaigns during the reign of Sultan Suleiman the Magnificent. It also analyzes the shared interests of both empires in their struggle against the Safavid state, the actions of Uzbek rulers such as Ubaydullah Khan and Abdulatif Khan, and the content of the Amasya Agreement. The article aims to highlight the role and importance of relations with the Ottomans in the foreign policy of the Uzbek Khanates.

Keywords: Ottoman Empire, Uzbek Khanates, Sultan Suleiman the Magnificent, Safavids, Ubaydullah Khan, Abdulatif Khan, Iranian campaigns, diplomatic relations, Amasya Agreement.

O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR

Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVI asrda O'zbek xonliklari bilan Usmonli davlati o'rtasidagi siyosiy-diplomatik aloqalar yoritilgan. Asosiy e'tibor Qonuniy Sulton Sulaymon davrida olib borilgan yozishmalar, elchilik missiyalari va harbiy yurishlar orqali shakllangan o'zaro hamkorlikka qaratilgan. Shuningdek, Safaviylar davlati bilan kurashda ikki davlatning umumiy manfaatlari, Ubaydullaxon va Abdulatifxon kabi o'zbek hukmdorlarining faoliyati, va Amasya sulhining mazmuni tahlil qilingan. Maqola O'zbek xonliklarining tashqi siyosatida Usmonlilar bilan aloqalarining o'rni va ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Usmonli davlati, O'zbek xonliklari, Qonuniy Sulton Sulaymon, Safaviylar, Ubaydullaxon, Abdulatifxon, Eron yurishlari, diplomatik aloqalar, Amasya sulhi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N10>

Kirish. XVI asr Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari tarixida murakkab siyosiy voqealarga boy davr bo'ldi. Bu davrda O'zbek xonliklari va Usmonli davlati kabi yirik musulmon davlatlarining tashqi siyosiy aloqalari, ayniqsa Safaviylar bilan olib borilgan kurash doirasida muhim ahamiyat kasb etdi. O'sha davrda nafaqat ichki siyosiy o'zgarishlar, balki regional va global miqyosda kuchli diplomatik munosabatlar ham shakllana boshladi. Ayniqsa, O'zbek xonliklari va Usmonli davlati o'rtasida olib borilgan strategik hamkorliklar ikki mamlakatning taqdiri uchun muhim rol o'ynadi. Ushbu munosabatlarning rivojlanishida, albatta, ikki davlatning umumiy raqiblariga qarshi kurashish, ya'ni Safaviylar davlatiga qarshi olib borilgan harbiy va diplomatik sa'y-harakatlar muhim omil bo'ldi. Qonuniy Sulton Sulaymon davrida,

ya'ni Usmonli imperiyasining eng kuchli hukmdorlaridan biri bo'lgan Sulton Sulaymonning siyosiy mahorati va harbiy strategiyasi o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Uning O'zbek hukmdorlari bilan olib borgan yozishmalari va o'zaro harbiy hamkorliklari ikki davlat o'rtasida mustahkam ittifoqlarni shakllantirishga olib keldi. Bu diplomatik aloqalar, nafaqat Usmonli imperiyasi va O'zbek xonliklarining ichki siyosatiga, balki umumiy siyosiy va harbiy strategiyalariga ham ta'sir qildi. Ayniqsa, Safaviylar bilan olib borilgan kurashda ikki davlat o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash va bir-birining manfaatlarini himoya qilishda qo'l kelgan ittifoqlar, ikki tomonlama siyosiy rishtalarni kuchaytirdi. Ushbu maqolada aynan shu siyosiy aloqalarning tarixiy asoslari, sabablari va natijalari o'rganilib, O'zbek xonliklari va Usmonli davlati o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga va ushbu munosabatlarning kengayishiga olib kelgan siyosiy va diplomatik faoliyatlar tahlil qilinadi.

Shoh Ismoil atigi 38 yoshida vafot etganidan so'ng, uning o'rniga 10 yoshli o'g'li Shoh Tahmasp (1524–1576) taxtga o'tirdi. Sulton Sulaymon Shoh Tahmaspga maktub yo'llab, otasining qilgan xatolarini takrorlamasligi va to'g'ri yo'ldan chetga chiqmasligi haqida ogohlantirishlar berdi. Bu davrda Turkistonda esa O'zbek davlati ikki qismga bo'lingan bo'lib, Muhammad Shayboniyxonning vafotidan so'ng O'zbek federatsiyasining (Buxoro hududida Abdulhayriylar sulolasining Shoh Budak ¹shohidan Ubaydullaxon, Toshkent va Sirdaryoning shimoliy hududlarida esa Suyunchiylar yetakchisi Suyunchixon, Samarqand va Buxoro orasidagi Karmana va Miyankol hududlarida esa Jonibeklar sulolasi vakili Jonibek Sulton hokimiyat tepasida edi) rahbari etib uning ukasi Ko'chkunchixon tayinlangan edi. Orol deltasi hududida tashkil topgan Xorazm (Xiva) xonligi esa xonlik asoschisi Elbarsxonning jiyani Xusaynqulixon tomonidan boshqarilardi (1;B.19-20).

Garchi davlatning asosiy hukmdori Ko'chkunchixon bo'lsa-da, Safaviylarga qarshi olib borilgan urushlarda Usmoniylar davlati bilan diplomatik aloqalarni Buxoro hukmdori Ubaydullohxon amalga oshirar edi (1;B. 25-26).

Ubaydullaxon (1533–1539) va Abdulatifxon (1540–1552) Qonuniy (Kanuni)² Sulton Sulaymonga elchilar va maktublar yuborib, Safaviylar bilan olib borilgan kurashlari haqida xabar berishgan, shu orqali Usmoniylar davlatidan yordam so'rashgan. Sulton Sulaymon 1534-yilda Ubaydullaxondan, 1540-yilda esa Abdulatifxondan maktub olgan. Bu ikki yordam so'ralgan maktub Qonuniy Sulton Sulaymonning Iroqeyn yoki Irakeyn³ yurishiga chiqishida muhim omillardan biri bo'lgan (4; B.37-39).

Ubaydullaxon (1533–1539) o'z maktubida: "Islom dini, Alloh va Payg'ambar roziligi uchun Qonuniy Sulton Sulaymon bilan birga Eronga yurish qilishni chin dildan istayman," deb bildirgan edi. Shunday qilib, Shayboniylar (O'zbeklar) ham Safaviylarning doimiy tahdidlaridan qutulishar, hamda Turkistondagi musulmonlar uchun Makka va Madinaga boruvchi haj yo'li osonlashib, xavfsiz bo'lardi. Ubaydullaxon maktubiga Qonuniy Sulton Sulaymonning javobi

¹ Shoh Budak Abulxayrxonning o'g'li bo'lib, o'zbek qabilalarini birlashtirishda muhim rol o'ynagan. Uning o'g'li Muhammad Shayboniyxon esa Movarounnahrda Shayboniylar sulolasiga asos solgan.

² Usmon va Orxon beylarga "g'ozi", Murod I ga "hudovandidgor", Boyazid I ga "yildirim", Mehmed II ga "fotih" yoki "Abu'l-fat'h", Boyazid II ga "sofi" yoki "vali", Sulaymon I ga esa "qonuniy", Salim I ga esa juda salbiy ma'nolarni o'z ichiga olgan "yovuz" laqabi munosib ko'rilgan edi. Sulton Sulaymonga "Qonuniy" (turkcha: *Kanuni*) laqabi berilishining sababi — u o'z hukmronligi davrida davlat boshqaruvi va huquqiy tizimni tartibga soluvchi ko'plab qonunlar (yoki *kanunlar*) tuzganidir.

³ "Irakeyn Seferi" — bu Usmonli sultoni Qonuniy Sulton Sulaymon tomonidan 1534–1535 yillarda amalga oshirilgan harbiy yurish bo'lib, asosiy maqsad Iroq (ya'ni "ikki Iroq") hududlarini Safaviylar qo'lidan olib, Usmonlilar imperiyasiga qo'shish edi. Bu yerda "Irakeyn" so'zi "ikki Iroq" degan ma'noni bildirib, Arab Iroqi (Bag'dod atrofidagi hudud) va Ajam Iroqi (Eron g'arbiy qismi, ya'ni Isfahon, Hamedon atrofidagi hududlar) o'z ichiga olgan.

juda ijobiy bo'lgan. U yuborilgan maktubdan mamnunligini bildirgan va Safaviylarga qarshi boshlangan kurashda muvaffaqiyatga umid borligini, bu kurash davom ettirilishini ma'lum qilgan (3; B.523-534)

Qonuniy Sulton Sulaymon Iroq yurishidan avval Shoh Tahmaspga fors tilida bir maktub yozadi va bu maktubida shunday deyilgandi: "Osmon toqiga teng lashkar o'rni Tabriz va Ozarbayjon yerlarida, balki Eron, Turon va boshqa viloyatlar — Samarqand va Xuroson sahrolarida tiklanishi muqarrar bo'ldi. "Ushbu tahdidli maktubda Sulton Sulaymon Shoh Tahmaspga o'z lashkarini faqat Eron va Ozarbayjonga emas, balki Erondagi boshqa hududlarga — Xuroson, hatto Samarqand va Turon mintaqasiga ham joylashtirishini bildiradi (1; B. 45-46)

Shoh Tahmasp boshchiligidagi Eron Usmonli davlatiga nisbatan dushmanlik siyosatini davom ettirgani sababli, Qonuniy Sulton Sulaymon 1550-yilda Ahmad Chavush ismli kishini "noma" (maktub) bilan Abdulatifxonga yuborib, to'g'ridan-to'g'ri shialarga qarshi yurish boshlashini so'ragan.


Agar ushbu maktubning sabablariga nazar tashlasak, birinchi Vena qamali paytida Usmonli davlati ichida Shoh Tahmaspning gijgijlashlari bilan yuzaga kelgan isyonlar ko'zga tashlanadi. Qadri Hoja Bobo, Bobo Zunnun, Vali Xalifa, Yekche Bey, Kalender Shoh kabi isyonlar Qonuniy Sulton Sulaymonni jiddiy bezovta qilgan. Ayniqsa, Kalender Shoh isyoni keng ko'lamli bo'lgan. Bu isyon natijasida Usmonli davlati qulashiga sal qolgan edi va u katta qiyinchiliklar bilan bostirilgan.

Bu voqealardan so'ng, eng oxirida Qizilbash Saydiy isyonining boshlanishi Qonuniy Sulton Sulaymonning Iroqeyn yurishini zarur holga keltirgan (3; B.437-534)

Birinchi Eron (Iroq) yurishi¹ (1533–1535).

Eron ichidagi hokimiyat kurashini imkoniyat sifatida qabul qilgan Usmonli davlati sultoni, o'zbek xoni Ubaydullaxon bilan birgalikda Eronga qarshi yurish uyushtiradi. Sulton Sulaymon o'zining bir armiyasini Eron hokimiyati ostidagi Bitlisga yuboradi, shu vaqt ichida Ubaydullaxon ham Eronga qarshi to'rtinchi yurishini tashkil qiladi. Mashhad, Nishopur va Astrobod kabi shaharlarni egallaydi. Hirotni qamal qiladi. Shaharga bir yil davomida qarshilik ko'rsatilganidan so'ng, shahar taslim bo'ladi. Biroq, xon Abu Saidning vafoti sababli o'zbeklar o'rtasida boshlangan hokimiyat kurashlari tufayli, Ubaydullaxon safarni yarim yo'lda to'xtatib, Movarounnahrqa qaytishga majbur bo'ladi. Safaviylar armiyasi, o'zbek armiyasining egallagan va qo'shinlarini qaytarib olgan bu hududlarni osonlik bilan qayta egallaydi. Biroq, Sadriazam Ibrohim Pasha boshchiligidagi Usmonli armiyasining Tabrizga kirganini eshitgan Shoh Tahmasp keyinchalik orqaga chekinishga majbur bo'ladi. 1534-yilda Ubaydullaxon yuqorida yozilgan maktub bilan birga yana Xurosonga yurish uyushtiradi. Bu davrda Usmonli armiyasining boshiga o'tgan Sulton Sulaymon ham Tabrizga kiradi. Buni eshitgan Shoh Tahmasp qochib ketadi. 1536-yilda Sulton Sulaymon Istanbulga qaytadi.

¹ Geografik jihatdan bu davrda Iroq hududi Safaviylar ta'siri ostida bo'lgani uchun, Irakeyn (ikki Iroq) so'zi o'rniga Eron deb yozildi. Negaki, bu yurishlarning asosiy qismi hozirgi Eron hududidagi shaharlarga qaratilgan edi.



Usmonli davlati tomonidan Venaning qamal qilinishi (1529).

Bu orada, Sidam Mirza qo'mondonligidagi o'zbek armiyasi ham Eronga qarshi yurish uyushtirmoqda edi. Ubaydullaxon, 1535-yildagi maktubida Bestam, Damgan va Hirot kabi shaharlarni egallaganidan so'ng, yagona va eng katta dushmani deb e'lon qilgan Qizilbosh Eronga qarshi yurishlar davom etishini bildiradi.

Usmonli armiyasining Istanbulga qaytishini imkoniyat deb bilgan va yengillashgan Shoh Tahmasp barcha kuchi bilan o'zbek armiyalariga hujum qiladi. Shunday qilib, Ubaydullaxon orqaga chekinadi va shu bilan uning so'nggi yurishi yakunlanadi. Buxoroga qaytgan Ubaydullaxon 1539-yilda vafot etadi.

Ikkinchi Eron yurishi (1548–1549).

1546-yilda Shoh Tahmasp bilan uning ukasi Elqas Mirzo o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keladi. Shoh ukasini mag'lub etadi, jangdan qochgan Elqas Mirzo esa agar Safaviylar davlatining hukmdori bo'lsa, Usmonlilar vassali bo'lishiga va'da berib, Usmonli davlatiga panohtopadi. Shunday qilib, 1548-yilda Eronga qarshi ikkinchi yurish boshlanadi. Biroq, Chaldiran jangidan saboq olgan Shoh Tahmasp Sulton Sulaymon bilan to'qnashishga jur'at qilmaydi. Van, Tabriz, Diyorbakir kabi shaharlarni egallagan Qonuniy Sulton Sulaymon Diyorbakirda qishlab, so'ngra ortga qaytadi.

Uchinchi Eron yurishi (1553–1555).

Usmonli qo'shinining mintaqadan chiqib ketishi bilan Shoh Tahmasp yo'qotgan hududlariga hujum qiladi va ularni yana qaytarib oladi. Bu holat Sulton Sulaymonni ranjitadi va u Eron ustiga uchinchi safarga yanada kengroq tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Ikkinchi safarda O'zbek xonliklari bilan aloqasi bo'lmagan Usmonli davlati bu urushda o'zbek xonliklari bilan hamkorlik qilishga ancha ishtiyoqmand ekanini ko'rsatadi.



Eron (Irakeyn) yurishlari xaritasi

Ikkinchi Eron safaridan sal oldin Bobo Shayx ismli o'zbek elchisi Usmonli saroyini ziyorat qilgan edi. Ushbu elchining olib kelgan maktubiga javoban yuqorida tilga olingan Ahmad Chavush orqali yuborgan maktubida Sulton Sulaymon qariyb 2 yil davom etgan Eron safarini bayon etadi. U Usmonli-O'zbek ittifoqining zarurligini ta'kidlaydi. Eronga ikki tomondan bir vaqtda yurish qilinadigan bo'lsa, muvaffaqiyatga erishish mumkinligini bildiradi.

Sulton Sulaymonning ilgari bergan yurish buyrug'ini bajargan Abdullatifxon, 1550-yilgi maktubida "birgalikda dushmanga qat'iy zarba bera olish uchun" o'ziga qurol-yarog' va askar yordamini so'ragan. Ba'zi manbalarga ko'ra, Sulton Sulaymon Abdullatifxonning bu iltimosini ijobiy qabul qilib, Turkistonga 300 yanchar, to'pchilar va to'plarni yuborgan (6; B. 45-87). Biroq, Abdullatifxon 1552-yil boshlarida vafot etgani sababli, Azov-Astraxon yo'li orqali yuborilgan bu yordam unga yetib bormagan va Eron (Safaviylar)ga qarshi foydalana olmagan (5; B.69-70).

Abdullatifxonning vafotidan so'ng, O'zbek xonligida hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Hokimiyatni qo'lga olgan Baroqxon (Navruz Ahmad Bahodirxon), Usmonli davlatiga Qutlug' Fulodiy ismli elchi orqali maktub yuboradi. Bu maktubida Baroqxon, Sulton Sulaymondan

kechirim so'rab, hokimiyat uchun bo'layotgan kurashlar tufayli Eron ustiga yurish qila olmaganini bildiradi. U, Buxoro tashqarisidagi barcha o'zbek hududlarida hokimiyatni barpo etganini aytib, Buxoro ustidan to'liq nazorat o'rnatilgach, Eron (Safaviylar)ga qarshi yurish qilishga tayyor ekanini bildiradi (7; B.123-124)

Sulton Sulaymon 1553-yilda uchinchi Eron yurishini o'zbek ittifoqchilari bo'lmasdan boshlashga majbur bo'ladi. Nahchivon, Qarabog', Yerivan kabi hududlar Usmonli davlati qo'lga o'tadi. Urush maydonlarida yana ko'rinmagan Shoh Tahmasp, Sulton Sulaymondan tinchlik so'raydi. 1555-yil aprel oyida Safaviylar davlati bilan Usmonli davlati o'rtasida Amasya shartnomasi tuziladi.¹ Ushbu shartnoma bilan Shoh Tahmasp Ozarbayjon, hozirgi Sharqiy Anadolu va Bag'dodning Usmonlilarga tegishli ekanini tan oladi. Uzoq davom etgan Safaviy-Usmonli kurashi shu tariqa bir tinchlik davriga kiradi. Bu holat 1600-yillarda Safaviy hukmdori Shoh Abbos Bag'dodga hujum qilguniga qadar davom etadi (8: B.34-35)

Bu orada Buxoroni ham egallab, Movarounnahrda nazoratni qo'lga kiritgan Baroqxon Nizomiddin Ahmad ismli elchi orqali Usmonli davlatiga maktub yuboradi va agar oz miqdorda yordam ko'rsatilsa, Eron ustiga yurish qilishi mumkinligini bildiradi. Bu maktubga hali Usmonli davlati tomonidan javob berilmasidan oldin, Istanbulga qarindoshlarini ziyorat qilish uchun kelgan Muslihiddin Mustafo orqali yana bir maktub keladi. Bu holat yuzasidan Sulton Sulaymon ikkita alohida maktub bilan Baroqxonga javob yo'llaydi. Birinchi maktubda Muslihiddin Mustafo Istanbulda qanday yaxshi kutib olingani haqida yozadi. Ikkinchi maktubda esa Qutlug' Folodiy orqali yuborilgan avvalgi maktubni eslatadi va Usmonli-O'zbek xonliklari o'rtasidagi munosabatlar Ubaydulloh va Abdulatif xon davrlaridagidek yaxshi darajada davom etishini istayotganini bildiradi (2: B.79-80). Biroq Eron bilan tuzilgan shartnoma sababli Usmonli davlati Eron ustiga yurish qila olmasligini tushuntiradi. Shuningdek, agar Eron O'zbeklarni bezovta qiladigan bo'lsa, bu haqda o'ziga darhol xabar berilishini ham so'raydi. 1560-yilda yuz bergan Shahzoda Boyazid² voqeasi bilan birga Eronga qarshi Usmonli-O'zbek xonliklari o'rtasidagi aloqalar va maktub almashinuvi boshlanadi. Sulton Sulaymon haj ziyoratini bajarganidan so'ng Hijozdan qaytayotgan Darvish Muhammad Badaxshoniy orqali Baroqxonning ikkinchi vorisi bo'lgan Pirmuhammadxonga bir maktub yuboradi. Maktubda Shahzoda Boyazid voqeasi sababli Usmonli davlati Eron ustiga yurish qilmoqchi ekani va O'zbek xonligi ham Eron shohiga qarshi harakat boshlashi ma'qul bo'lishi yozilgan edi. Biroq shahzodaning Usmonli davlatiga topshirilishi va qatl qilinishi Sulton Sulaymonning Eron yurishiga chiqishini to'sadi. Shunga qaramay, Pirmuhammadxon Eron ustiga yurish tayyorgarliklarini davom ettiradi. Shoh Tohmasp shahzodani topshirganidan so'ng Usmonli

¹ Amasya shartnomasi (1555-yil, 29-may) — Usmonli imperiyasi bilan Safaviylar davlatining Eron o'rtasida imzolangan tinchlik shartnomasidir. Ushbu shartnoma, ikki kuchli imperiyaning o'zaro hududiy nizolarni hal etish uchun bir-biriga qarshi urushlarni to'xtatish maqsadida tuzilgandi.

² Shahzoda Boyazid — Sulton Sulaymonning o'g'illaridan biri bo'lib, akasi Shahzoda Salim (keyinchalik Sulton Salim II) bilan taxt uchun raqobatlashgan. Sulton Sulaymon bu raqobatda Salimni qo'llab-quvvatlagan, bu esa Boyazidning noroziligiga sabab bo'lgan. Natijada Boyazid otasiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. U dastlab muvaffaqiyat qozongan bo'lsa-da, keyinchalik mag'lub bo'lib, Eron (Safaviylar davlati) hududiga qochgan. Shoh Tohmasp (Safaviylar hukmdori) uni dastlab panoh bergan bo'lsa-da, Usmonli bosimi va diplomatik aloqalar natijasida Boyazidni Usmonlilarga topshiradi. Shahzoda Boyazid 1561-yilda qatl etiladi. Bu voqea Usmonli-Safaviy munosabatlarida muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bu hodisa ortidan Usmonli-O'zbek aloqalari faollashadi, chunki Usmonlilar Eron ustiga yurish ehtimoli borligi sababli O'zbek xonliklari bilan ittifoq izlay boshlagan.

davlati bilan yaqinlashuv bo'ladi deb o'ylab, Usmonli davlatiga bir elchi yuboradi (9; B.123-125).



Sulton Sulaymon va o'g'li Boyazid miniyaturasi

Elchining olib kelgan maktubida Eron Usmonlidan O'zbeklarga qarshi yordam so'raydi. Biroq Usmonli davlati diniy sabablarga ko'ra, shialikdagi Eron bilan ittifoq tuzib, sunniy davlatga hujum qila olmasligini aytib, bu taklifni rad etadi (2; B.101-105)

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XVI asrda O'zbek xonliklari bilan Usmonli davlati o'rtasidagi aloqalar nafaqat diniy yaqinlik, balki umumiy siyosiy manfaatlar asosida shakllangan. Ushbu aloqalar, asosan, ikki mamlakatning Safaviylar davlatiga qarshi olib borgan kurashida o'z aksini topdi. Qonuniy Sulton Sulaymon va o'zbek hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalar, elchilar yuborilishi va harbiy yurishlar orqali yuzaga kelgan diplomatik hamkorlik, ikki davlatning har biri uchun o'z manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'ldi. Bu hamkorlikning eng yorqin namunalaridan biri, albatta, Amasya shartnomasining imzolanishi bilan bog'liq. Ushbu shartnoma ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlarni mustahkamladi va regiondagi geosiyosiy barqarorlikka hissa qo'shdi. Xususan, Qonuniy Sulton Sulaymon davrida Usmonli davlatining ta'siri o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetdi. Sulaymonning siyosiy mahorati va harbiy strategiyasi tufayli Usmonli imperiyasi o'zining hududiy manfaatlarini kengaytirishga erishdi va o'zbek xonliklari bilan muhim ittifoqlar tuzdi.

Bu ittifoqlar esa Safaviylar bilan bo'lgan uzoq davom etgan kurashda hal qiluvchi rol o'ynadi. O'zbek hukmdorlarining Safaviylarga qarshi olib borgan faoliyati, shuningdek, ikki davlatning o'zaro hamkorligi barcha diplomatik va harbiy harakatlarning asosiy omili bo'lgandi. Shuningdek, bu tarixiy tajriba nafaqat o'sha davr uchun, balki bugungi geopolitik munosabatlarni tahlil qilishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. XXI asrda ham davlatlar o'rtasidagi diplomatik va harbiy aloqalar ko'p hollarda o'zaro siyosiy manfaatlarga asoslangan holda shakllanadi. Ushbu tarixiy voqealar, albatta, hozirgi global siyosatda ham ko'plab davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar va ittifoqlarning shakllanishiga yo'l ochadi. Bugungi kunda ham, O'zbekistondan Usmonli imperiyasiga qadar bo'lgan siyosiy-madaniy aloqalar, shuningdek, Amasya shartnomasining tarixi, o'rganish uchun katta ahamiyatga ega. Bu jarayonlarning nafaqat tarixiy, balki zamonaviy siyosat uchun ham ko'plab o'rganilishi lozim bo'lgan saboqlari mavjud.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Andican, A. (2009). Osmanlı'dan günümüze Türkiye ve orta asya. İstanbul: Doğan Egmont Yayıncılık, 19-20,25-26, 45-46.
2. Hammer, J. (2003). Büyük Osmanlı tarihi. İstanbul: Üçdal Neşriyat, 101-105.
3. Kılıç, R. (1999). Osmanlı-Özbek siyasi ilişkileri (1530-1555). Türk Kültürü Dergisi, 437, 523-534.
4. Davani, N. & Hatam, J. (2018). Safavi döneminde Avrupa tarzı duvar resimleri: Bir sanat tarihi okuması. İran Çalışmaları Dergisi, 2(1), 37-39.
5. Aliyev G.Z , Турция в период правления младотурок, Москва, 1972, 69-70.
6. O'zbekistonning yangi tarixi, 1-kitob (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida), Toshkent, 2000, 45-87.
7. Рахмаалиев, Р., Империя тюрков, Москва, 2002, 123-124.
8. Erol Güngör, Tarihsel Türkî Devletler, Toshkent, 2003, 34-35.
9. Mirzo Salimbek, Kashkuli Salimiy, Tavorixi mutaqaadimin va mutaaxirin, Buxoro, 2003, 123-125.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).